

XITOIY TILIDA TAOM ISTE'MOLI HARAKATLARIGA ASOSLANGAN METAFORALARNING SEMANTIK MAYDONI

Fayzullayeva Madina Qahramon qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti tayanch doktoranti Toshkent, O'zbekiston*

Tel: +998909057174

fayzulaevamadina@970gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xitoy tilidagi taom iste'moli jarayoniga oid harakatlar asosida shakllangan metaforalar tizimi semantik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda iste'mol faoliyatiga xos bo'lgan jismoniy harakatlarning abstrakt tushunchalarga ko'chishi, ya'ni manba domenidan maqsad domeniga o'tish mexanizmlari izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *gastronomik metafora, taom iste'moli harakati, semantik maydon, konseptual metafora, kognitiv proyeksiya.*

Xitoy tilidagi metaforik tizimda taom iste'moli bilan bog'liq harakatlar alohida semantik kuchga ega bo'lib, ular xalqning madaniy tajribasi, kundalik hayot tarzi va kognitiv dunyoqarashini aks ettiradi. “吃 chī — yemoq”, “喝 hē — ichmoq”, “咬 yǎo — tishlamoq”, “嚼 jiáo — chaynamoq”, “咽 yàn — yutmoq” kabi fe'llar dastlab fiziologik jarayonni anglatsa-da, xitoy tilida ular ko'pincha abstrakt ma'nolarga ega bo'lib, inson xarakteri, ijtimoiy holat, psixologik kechinmalar, iqtisodiy jarayonlar va nutqiy vaziyatlarni ifodalovchi kuchli metaforik vositalarga aylanadi.

Gastronomik harakatlarga asoslangan metaforalar o'zining xalqchil va darhol anglashiladigan tabiati bilan til egalarining konseptual tafakkurida muhim o'rin tutadi. Chunki iste'mol qilish jarayoni inson hayotining universal va doimiy tajribasi sifatida boshqa abstrakt hodisalarni tushuntirish uchun qulay kognitiv asos yaratadi.

(1) Tarkibida “吃” chī “yemoq” fe'li bo'lgan metaforalar.

Masalan: 吃豆腐 chī dòufu tofu yemoq (noo'rin hazil yoki munosabatda bo'lish), 吃闭门羹 chī bì mén gēng eshik ortida sho'rva yemoq (kirishga ruxsat bermaslik), 吃醋 chī cù sirka yemoq (hasad qilish sevgi bobida), 吃干醋 chī gān cù quruq sirka yemoq (bilvosita rashkni boshdan kechirish, hasad qilish), 吃飞醋 chī fēi cù uchuvchi sirka yemoq (rashkchi), 吃小灶 chī xiǎo zào kichik pechkada ovqatlanish (mayda-chuyda ovqatlar), 吃糠咽菜 chī kāng yàn cài kepak yemoq, sabzavotlarni yutmoq (qiyinchilik va qashshoqlik), 吃软饭 chī ruǎn fàn yumshoq guruch yemoq (ayol hisobidan yashash), 吃闲饭 chī xián fàn bemalol ovqat iste'mol qilmoq (bo'sh yashamoq), 吃白食 chī bái shí oq taom yemoq (halol pul topmaslik,

birovning rizqini tekin yemoq), 吃独食 chī dú shí yolgʻiz ovqatlanmoq (imtiyozlarni monopollashtirish, boshqalar bilan baham koʻrmaslik), 吃黑枣 chī hēi zǎo qora xurmo yemoq (otishma, oʻqlarga nisbatan), 吃烧饼 chī shāo bǐng kunjutli non yemoq (otish amaliyotida nishonni oʻtkazib yuborish), 吃素 chī sù sabzavot yemoq (vegetarian), 吃苦头 chī kǔ tóu qiyinchilik yemoq (azoblanmoq);

“小孩过生日的讲究就只有要 吃面和吃白煮蛋而已. 每年生日, 一早母亲煮好几个鸡蛋, 家里每人一个, 小寿星额外可以多拿一两个.” (“重庆晚报” 2014-06-02, 10版)

“Bolalarning tugʻilgan kunini nishonlashda asosiy eʼtibor ugra va qaynatilgan tuxum isteʼmol qilishga qaratiladi. Har yili tugʻilgan kunda onam ertalab bir nechta tuxum qaynatib qoʻyar, uy ahli uchun bittadan, tugʻilgan kun sohibasiga esa qoʻshimcha bir-ikki dona berilardi.”

Xitoy madaniyatida mazkur odatning simvolik-madaniy ildizlari mavjud. Jumladan, “吃面” chī miàn “ugra yeyish” oʻzida alohida metaforik maʼnoni mujassam etadi. Anʼanaga koʻra, uzun shakldagi ugra uzoq umr, barqaror hayot yoʻli, sogʻlik va farovonlik kabi tushunchalarni bildiradi. Metaforik jihatdan esa ugraning uzunligi hayotning davomiyligi bilan kognitiv bogʻlanadi. Mazkur maʼno koʻchishida “uzunlik” konsepti “uzoq umr” tushunchasiga koʻchiriladi, yaʼni ugraning jismoniy uzunligi bilan umrning davomiyligi oʻrtasida metaforik asosga ega boʻlgan kognitiv bogʻlanish yuzaga keladi.

(2) Tarkibida “喝” he “ichmoq” feʼli boʻlgan metaforalar.

Masalan: 喝苦酒 hē kǔ jiǔ achchiq sharob ichmoq (ayanchli oqibat, dahshatli natija), 喝迷魂汤 hē mí hún tāng sehrli shoʻrva ichmoq (til va hatti-harakatning chalkashishi), 喝闷酒 hē mèn jiǔ gʻamgin sharob ichmoq (qaygʻuda yolgʻiz sharob ichmoq), 喝西北风 hē xīběi fēng shimoli-gʻarbiy shamolni ichmoq (och qolmoq).

(3) Tarkibida “啃” kěn “chaynamoq” feʼli boʻlgan metaforalar.

Masalan: 啃硬骨头 kěn yìng gǔtǒu qattiq suyaklarni chaynamoq (murakkab masala bilan shugʻullanish);

(4) Tarkibida “咬” yǎo “tishlamoq” feʼli boʻlgan metaforalar.

Masalan: 咬菜根 yǎo cài gēn oʻsimlik ildizlarni tishlash (qashshoqlik va mashaqqatli hayot).

Natijada taom isteʼmoli harakatlariga asoslangan metaforalar xitoy tilida kuchli ekspressivlik, xalqchil obrazlilik, yuqori darajadagi tushunarli boʻlish xususiyati bilan ajralib turadi va kommunikativ samaradorlikni sezilarli oshiradi.

Demak, ushbu metafora guruhi nafaqat tilning leksik-semantik boyligini kengaytiradi, balki xitoy xalqining dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi konseptual tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G. Metaphors We Live By / George Lakoff, Mark Johnson. – Chicago : Chicago University Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction / Zoltán Kövecses. – N.Y. : Oxford University Press, 2002. – 285 p.
3. 金爱情. 汉韩饮食惯用语的隐喻和转喻对比研究. - 浙江大学, 2018年. - 54 页.